

## INGLIZ TILI O'RGANISHNING HAYOTIMIZGA BO'LGAN TA'SIRI VA O'RNI

**Xabiyeva Muxlisa**

*O'quvchi: 2106 Guruh 2-Kurs*

**Annotatsiya:** *ushbu maqolada ingliz tilini o'rganish Ingliz tilini bilishning xayotimizga bo'lgan tasiri va o'rne haqida yozilgan. Hozirgi kunda ingliz tilini o'rganish juda tez rivojlanib borayotganligi haqida malumotlar keltirilgan .*

**Kalit so'zlar:** *ingliz tili so'z boyligi. ingliz tilini o'rganish metodikasi ingliz tilining hayotimizga bo'lgan tasiri.*

Barchamizga ma'lumki so'nggi yillarda Ingliz tili dunyo miqyosida juda keng tarqalayotgan tillardan biri bo'lib hisoblanadi. Hozirgi kunda har bir kishi kamida ikkita tilni biladi va bu o'z o'zini rivojlantirishning bir usuli emas balki zarurat bo'lib qoldi. 10 yil oldin ingliz tilini o'rgatish faqatgina maktab litsey kollej va insititutlarda bo'lar edi va maktablarda faqatgina 5sinf dan boshlanib o'rgatilar edi va bu o'quvchilarda ingliz tilini o'zlashtirishga qiyinchiliklar tug'dirar edi. Ammo hozirda Ingliz tili nafaqat maktab litsey kollej universitetlarda balki ko'plab qo'shimcha maktabgacha ta'lim muassasalarida ham ta'limning majburiy tarkibiy qismiga aylandi . Hozirgi kunda Jamiyatda ingliz tiliga bo'lgan talab, bir tomondan, shuningdek, ota-onalar tomonidan til nafaqat zamonaviy insonni tarbiyalashning omili, balki uning jamiyatdagi ijtimoiy va moddiy farovonligining asosi ekanligini tushunishi boshqa ayni damda ingliz tilini erta o'rganishni ayniqsa mashhur va dolzarb qilish xar birimizga foydali hisoblanadi. Qolaversa hozir ingliz tilini bilish bizga juda katta imkoniyat eshiklarini ochadi masalan ingliz tilini mukammal tarzda o'rgansak bu bizning chet elga sayohat qilishimizga zamin yaratadi chunki tilni bilasangiz bermalol boshqa davlatga sayohat qilsangiz bermalol muloqat qila olasiz va sizga xech qanday tarjimonga ehtiyoj sezmaydiz agarda o'qish uchun chet elga borsangiz xam xuddi shunday xech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi insonlar bilan bermalol muloqotga kirisha olasiz.

Agarda abituriyent bo'lsangiz ingliz tilidan CEFR yoki IELTS dajarangiz bo'lsa buni ham imkoniyati katta negaiki siz ingliz tili fanidan imtixonida 30tadan 30ta ishlagan xisoblanasiz bu ham bir o'zingizga bo'lgan yordamingiz hisoblanadi. Hattoki hozirda deyarli barcha universitetlarda o'quvchilardan CEFR yoki IELTS sertifikatini talab qilinayabdi Agarda universitetni bitirguningizcha sizda ingliz tilini bilish darajangiz ko'rsatilgan sertifikat bo'lmasa o'qishni tamomlay olmaysiz. Aynan bu ham sabab bo'ladi ingliz tilini o'rganishimiz kerakligiga. Hozirda o'zining sohasi bo'lmaganlar ingliz tilini o'rganishga ancha qiynalishlari mumkin biroq keyinchalik o'zlariga juda katta imkoniyat eshiklarini ochib beradi. Misol uchun Tibbiyot sohasida o'qiyotgan talaba o'qishni tamomlab chet elga deylik Amerikaga ishlash va o'z bilimini yanada oshirish uchun ketsa u bermalol ishlay oladi chunki

unda IELTS yoki CERF sertikati bor bemalol gaplashib o'zaro muloqot qila oladi. Listening Speaking Vocabulary ni qanday rivojlantirishimiz mumkin ? Ingliz tilini o'rganish uchun inglizcha so'zlar yodlashimiz zarur bu so'z boyligimizni oshiradi va gaplarimiz chiroyli va mano mazmunga boy tushunarli qilishga yordam beradi. Ko'proq inglizcha musiqa va video filmlar ko'rishimiz kerak bu listeningimizni oshirishga yordam beradi. Yodlagan so'zlarimizni ko'proq gapda foydalanishimiz kerak bu xotiramizda saqlab qolishimizga yordam beradi.

Muloqotda ham ko'proq inglizcha gapirishga harakat qilishimiz zarur bu esa speakingimizni oshiradi agar atrofingizdagilar bilan ko'proq inglizcha muloq qilsangiz yanada foydali. Ingliz tilini mukkamal tarzda o'rganishimiz uchun nimalar qilishimiz kerak ? 1) Inglizcha kitob, jurnal, gazeta o'qing Ingliz tilini o'rganishning eng asosiy qoidalaridan biri bu – ko'p o'qishdir. Ushbu ko'nikmaga ega bo'lmay turib, og'zaki va yozma sinovlarda yetarli darajada muvaffaqiyatga erisha olmaysiz agar til o'rganish masalasida qat'iy fikrda bo'lsangiz internetdan o'zingizni qiziqtirgan mavzudagi biron kitob, jurnal, gazetani topib, muntazam o'qib boring. Balki boshidan zerikarli yoki qiyin tuyilishi mumkin avvaliga tushunchasligingiz mumkin yoki foydasiz dek tuyilishi mumkin ammo keyinchalik buni foydasini albatta his qilasiz. Shuni unutmang har qanday o'rganilgan narsa bir kun albatta o'z samarasini beradi. Qo'l telefoningiz kompyuteringiz dasturini inglizchaga o'zgartiring , bajaradigan amalingizni ma'lum bir so'z bilan bog'lash va buni har kuni bajarish so'z boyligingizni orttiradi. Ayni vaqtda ijtimoiy tarmoqlar tilini ham o'zgartirish yangi bilimlar o'rganishingizda yordam beradi. Hozirda texnologiyalar juda rivojlangan xech qanday ishimizni telefon yoki kompyutersiz bajara olmaymiz har doim telefonimizdan juda ko'p foydalanamiz bu ham bizga o'zimiz bilmagan holda ingliz tilinida yana birqancha yangi so'z o'rganishimizga yordam beradi va keyinchalik bu so'zni aynan o'zimiz harakat qilib yodlamagan bo'lsakda yoki google yoki nimadir orqali tarjima qilmasdan oddiy holda tushunib olamiz. Mobil jihozlar va ilovalar ingliz tilini o'rganish istagida bo'lganlar uchun cheksiz imkondir. Texnika taraqqiyoti yashin tezligida ildamlab borayotgan bir vaqtda bu imkondan foydalanish tamoman sizning ixtiyoringizda. O'qishdan yoki ishdan uyga qaytar ekansiz, telefonga yuklangan bir qancha bepul ilovalar yordamida so'z yodlashingiz o'qish va anglash ko'nikmangizni orttiradi. Bundan tashqari juda ko'plar ilovalar bor ularda turli xil ingliz tili grammatikasini yaxshilash yoki so'z boyligini oshirish turli xil testlarni bajarib oxirida qancha bal to'plaganingizni xam ko'rsatib beradi. Qaysi ilovalar orqali ingliz tilidagi bilimlarimizni oshirishimiz mumkin?

Quyida ko'rsatilgan ilovalar orqali ingliz tilini yana yaxshiroq va quloyroq tarzda o'rganishingiz mumkin Duolingo, EWA English Language Learning, Learn English with Lingualeo, ELSA Learn and Speak English, Oson English Bilimdon Ingliz tili. Muloqotni yaxshilash uchun nimalar qilish kerak ? Muloqot qila olish mahoratingizni rivojlantirish uchun inglizzabon do'stlar orttiring. Internetdagi

ko'plab saytlar madaniyatlar bilan tanishuv, xorijiy til o'rganish, dunyoning turli mamlakatlaridan do'st orttirish uchun mo'ljallangan platformalardir. Shuningdek, Telegram, WhatsApp, Skype kabi ilovalar yordamida o'rtoqlaringiz bilan jonli suhbat qurish imkoningiz bor bu ancha katta yordam qiladi avvalo inson o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishi lozim chunki agar qo'rqsa yoki uyalsa bilgan narsasini xam ayta olmaydi va muloqotga kirisha olmaydi . Ingliz tilini rivojlantirmoqchi bo'lganlarga ilk tavsiyalardan biri o'rganayotgan tillarida ko'p qo'shiq eshitishdir. Bu esa ham so'zlarni, ham ularning talaffuzini o'rganishingizda, shuningdek, qulog'ingiz notanish so'zlarga moslashishida asqotadi. Qo'shiqni tinglar ekansiz, uning turiga, oson tushunilishiga, qo'shiq matnining qancha qismini qog'ozga tushira olishingizga ham diqqat qilib boring Inglizcha TV yoki You Tube kanallarni tomosha qiling masalan Amerika va Angliya TV kanallarida efirga uzatiladigan seriallarni, shoularni, xabarlarni, filmlarni ko'rish eng foydali usullardan biridir. Dastlabki bosqichda subtitr bilan tomosha qilib, keyin yozuvsiz holda anglashga urinib ko'ring Inglizcha gapirishsa tushunaman ammo gapira olmayman nima qilsam bo'ladi ? «Tushunaman, ammo gapira olmayman» degan gaplar tez-tez qulog'imizga chalinadi. Xorijdagi ish beruvchi tashkilotlar ham CEFR yoki IELTS kabi sinovlardan olgan sertifikatlarigizga emas, nutq mahoratini qay darajada egallaganingizga e'tibor qaratadi. Demak, bu muhim. Shu sababli ham xato gapirishdan qo'rqib muloqotga qo'shilmasangiz bu katta muammo sanaladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. David A. J, Eggen, P Kauchak. Methods for Teaching: Promoting student learning [M]2002.
- 2 <https://kun.uz/uz/news/2020/03/08/ingliz-tilini-togri-organish-boyicha-12ta-konikma>.